

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтамишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 821.512.133

XAMSANAVISLIK AN'ANASI VA UNDA TOSHLIJALI YAHYOBAY "GULSHAN UL-ANVOR" DOSTONINING O'RNI**ТРАДИЦИЯ ХАМСЫ И МЕСТО ДАСТАНА "ГУЛЬШАН УЛЬ-АНВАР" ЯХЬЯБЕЯ ТАШЛИДЖАЛИ****THE TRADITION OF KHAMSA AND THE PLACE OF THE DASTAN "GULSHAN UL-ANVAR" BY YAHYA BEY TASHLICALI****Sharipova Nigora Nuriddinovna** 

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d., PhD

Navoiy davlat universiteti doktoranti (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq adabiyotida xamsanavislik an'anasining taraqqiy etishi Nizomiy Ganjaviy va Toshlijali Yahyobey "Xamsa"larining ilk dostonlari misolida tahlilga tortilgan. Usmonli turk adabiyotining yorqin vakili Toshlijali Yahyobey o'z "Xamsa"sining ilk dostoni "Gulshan ul-anvor"da Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" hamda Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonlari strukturasidan qay tariqa andoza olgani misollar vositasida dalillangan. Xususan, dostondagi muhim o'zgarish – uch basmala bobning doston kompozitsiyasidagi muhim vazifasi ochib berilgan. Nizomiy dostonida alohida bob sifatida mavjud bo'lmagan mazkur bobning tuzilishi va mohiyati tahlili asosida muallif badiiy mahorati hamda individual uslubi asoslangan.

Аннотация

В данной статье анализируется развитие традиции создания хамсы в восточной литературе на примере первых дастан "Хамсы" Низами Гянджеви и Тошлиджали Яхьябея. На примерах показано, как Тошлиджали Яхьябей, яркий представитель османской турецкой литературы, использовал структуру "Махзан уль-асрор" Гянджеви и "Хайрат уль-аброр" Навои в первой дастане своей "Хамсы" - "Гульшан уль-анвар." В частности, раскрывается важное изменение в дастане - значимая роль трех глав с басмалой в композиции произведения. На основе анализа структуры и содержания этой главы, которая отсутствует как отдельная в поэме Низами, обосновываются художественное мастерство и индивидуальный стиль автора.

Abstract

This article analyzes the development of the Khamsa-writing tradition in Eastern literature, based on the first epics from the Khamsa collections of Nizami Ganjavi and Tashlijali Yahya Bey. Tashlijali Yahya Bey, a prominent figure in Ottoman Turkish literature, is shown to have structured his first epic Gulshan ul-anvar following the models of Ganjavi's Makhzan ul-asrar and Navoi's Hayrat ul-abror. This is supported by specific textual evidence. In particular, the article highlights a notable innovation — the central role of three basmala sections in the poem's composition. The analysis of the structure and meaning of these sections, which are absent as independent parts in Nizami's epic, substantiates the author's artistic mastery and distinctive literary style.

Kalit so'zlar: xamsanavislik, ilk doston, struktura, basmala, an'ana, novatorlik, badiiy mahorat.**Ключевые слова:** традиция хамсы, первый дастан, структура, басмала, традиция, новаторство, художественное мастерство.**Key words:** Khamsa writing, first epic poem, structure, basmala, tradition, innovation, artistic mastery.**KIRISH**

Xamsanavislik an'anasi Nizomiy Ganjaviy nomi bilan bog'lanadi va keyingi javobiya asarlarning barchasida uning ta'siri seziladi. Xususan, ilk doston "Maxzan ul-asror" Sharq adabiyoti xamsanavisligidagi tasavvufiy masnaviyning mukammal namunasi sanalib, ilk bor axloqiy-falsafiy mavzularni to'la qamrab olgan asar sifatida yangi she'riy uslubni shakllantirdi hamda bu an'ana turli millat, turli til egalari bo'lgan keyingi xamsanavislar ijodida ham yaqqol bo'y ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotshunos Bertels bu dostonning uslubiga to'xtalar ekan, uni Nizomiy dostonlari orasida eng murakkabi sanaydi. Olim fikricha, bu shoir tomonidan ongli ravishda joriy etilgan

murakkablik bo'lib, asar ko'ngilochar xarakterda emas, uning har bir satri chuqur e'tibor talab qiladi. Shuningdek, bu holatni Nizomiy lug'atining boyligi, uning fors tilining barcha leksik imkoniyatlaridan mukammal foydalangani hamda o'rni bilan arabcha so'z va terminlarni ham qo'llagani bilan bog'laydi[4;200]. Ilk dostoniga Eron, Hindiston, Markaziy Osiyo va Turkiya zaminida yuzlab javob asarlar vujudga kelgan. Sharq adabiyotida javobiya asari yaratish, ya'ni o'z salafining biror dostoni an'analari asosida yangi bir asar yaratishga qo'l urish jiddiy ijodiy mas'uliyat, o'z navbatida, katta san'at sanalgan[12;129]. Yaxlit sujet liniyasiga ega bo'lmagan ilk dostonlarga javob yozish o'ziga xos ijodiy musobaqaga aylangan. Buni Nizomiy beshligidagi eng ko'p javob yozilgan dostonlar birinchi va uchinchi ekanligidan ham ko'rish mumkin[11;104]. Chunki sujetdagi noodatiylik har bir ijodkorga asar mohiyatini butkul yangilash, o'zi istagan va yashagan davri uchun dolzarb sanalgan muammolar bilan boyitish imkonini bergan. Bunda ham ikki jihat ko'zga tashlanadi: 1) Nizomiy ilk dostoni strukturasini saqlash, ya'ni "kirish boblar + yigirma maqola va yigirma hikoyat + xulosa qism" tipida. Xususan, Dehlaviy, Jomiy va Navoiyda bu borada deyarli jiddiy o'zgarish ko'zga tashlanmaydi; navoiyshunos Levend Amir Xusrav o'z "Xamsa"sida Nizomiydan ilhomlangani uning dostonlari originalligiga soya solmasligini ta'kidlab, turkiy va forsiy adabiyotdagi xamsanavislik an'anasi xususida fikr yuritganda bu jihatni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimligini ta'kidlaydi [7;81]. 2) Javobiya sifatida e'tirof etilsa-da, struktura saqlanmagan dostonlar. Bunga misol sifatida Toshlijali Yahyobeyning "Gulshan ul-anvor"ini kiritish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Toshlijali Yahyobey XVI asr Usmonli turk adabiyotining shuhrat qozongan sohibi devon va xamsanavis shoirlaridan sanaladi. Ko'pgina manbalarda uning tug'ilgan yili aniq ko'rsatilmaydi[8;120, 5;1, 3;156, 9;4]. Shoir o'z she'rlarida Arnavutning Toshlija o'lkasidan bo'lgani uchun taxallusini shunga monand tanlaganini yozadi. O'zini "toshli yerdan chiqqan va komillik dengizi sari bormoqni niyat qilgan zilol suv"ga mengzar ekan, bunday joyning suvi mo'tabar va maqbul bo'lishini ta'kidlaydi[5;12]. "Qilich va qalam arbobi"[1;78] sifatida tanilgan Toshlijali Sulton Sulaymon Qonuniy bilan birga ko'plab yurishlarda ishtirok etgan. Yanicharlar safida faoliyat yuritib, harbiy bo'linma kotibi Shahobiddinbeyning mehrini qozonadi va ayrim qo'shimcha majburiyatlardan ozod etilib, lavozimi piyoda qo'shin boshlig'i darajasigacha yuksaladi. Shundan so'ng shoir ilm va ijod bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega bo'ladi.

Toshlijali Yahyobeydan bizgacha salmoqli ijodiy meros qolgan. Turk olimlaridan Fuod Ko'pruluzoda poetik mukammal masnaviylari, sodda va samimiy g'azallari, qimmatli qasidalar, ayniqsa, shahzoda Mustafo vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyasi shoirga tengsiz shuhrat keltirganini yozadi[6;136]. Bundan tashqari, payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.)ga atab yozilgan "Gul-u sadbarg" hamda Sulton Sulaymonga bag'ishlangan, biroq shoir vafoti sababli tugallanmay qolgan ikki ming baytlik "Sulaymonnoma"si haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Shoir devonidan turli mavzulardagi o'ttiz to'rt qasida o'rin olgan bo'lib (birinchi va ikkinchisi payg'ambarimizga atalgan), ulardan o'n to'rttasi Sulton Sulaymonga bag'ishlab yozilgan[5;6-10]. Shuningdek, devonidan besh yuzdan ortiq g'azal, qirq to'qqiz musammata, Edirna (215 bayt) va Istanbul (345 bayt) shaharlari madhiga bag'ishlangan ikkita shehrangizi mavjud. Farscha **şehir** ve **engiz** (harekete getiren, karıştırın) kelimelerinden olushan **şehir-engiz** bir shehrin güzellerini, doğa ve tarih güzelliğiyle sanat ve meslek dallarında ün yapmış kişileri ve onların sosyal durumlarını anlatır[2;462].

Toshlijali Yahyobey "Xamsa"si quyidagi tarkibiy tuzilishga ega: 1) "Shoh va gado"; 2) "Ganjinayi roz"; 3) "Yusuf va Zulayho"; 4) "Usulnoma"; 5) "Gulshan ul-anvor". Shoir "Xamsa"sining ilk dostoni sanalmish "Shoh va gado" bir ming to'qqiz yuz yetmish ikki baytdan iborat bo'lib, eronlik shoir Hiloliyning "Shoh va darvish" masnaviysidan ilhomlanib yozilgan[9;20]. Ikkinchi doston "Ganjinayi roz" esa Abdurahmon Jomiyning "Subhat ul-abror" asariga nazira tarzida bitilgan bo'lib, maqolatlardagi masalalar talqiniga ko'ra Nizomiyning "Maxzan ul-asror", Jomiyning "Tuhfat ul-ahror" asarlariga, diniy-axloqiy hikoyatlari mavzusi jihatidan Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlariga qiyoslanadi[13;346]. Asarning asosiy strukturasida qirq maqola va ilova xarakterdagi qirq hikoyatdan tashkil topganiga ko'ra, Jomiyning "Subhat ul-abror"ini takrorlaydi. Toshlijali "Xamsa"sining uchinchi dostoni asosi Qur'oni karim bilan bog'langan va Sharq adabiyotida keng tarqalgan "Yusuf va Zulayho" sujetiga asoslanadi. Toshlijalining o'z beshligiga an'anaviy "Xusrav va Shirin" yoki "Layli va Majnun"dan ko'ra "Yusuf va Zulayho"ga murojaati uning bu borada ko'proq

ADABIYOTSHUNOSLIK

Jomiyga izdosh bo'lganini ko'rsatadi. Keyingi doston "Usulnoma" uch ming ikki yuz o'ttiz yetti bayt, har biri hikoyat, latifa va tamsillar bilan dalillangan o'n ikki maqom va yetti sho'badan tashkil topgan.

Nizomiydan keyin Sharqda maydonga kelgan shoirlar orasida Nizomiyga tan bermagan, uning ulug' siymosiga sajda qilmagan, uning ta'sirida bo'lmagan, unga murojaat etmagan juda oz topiladi, deyarli yo'q [14;99]. Shunga qaramasdan ularning aksariyati g'olib bo'la olmagan [16;90]. Bu izdoshlik Toshlijali Yahyobey ijodi misolida olib qaralsa, "Xamsa"sining so'nggi dostoni "Gulshan ul-anvor" "Maxzan ul-asror" singari diniy-axloqiy va tasavvufiy xarakterdagi asar sifatida mavzusi, vazni hamda masalalardan so'ng dalillovchi hikoyatlar ilova qilinishi jihatidan unga o'xshaydi. Biroq struktura aynan bir xil emas. Shoir xamsanavislik an'anasiga ijobiy munosabatda bo'lgan, buni "Gulshan ul-anvor"da berilgan an'ana va salaflariga atalgan alohida e'tirofdan ham ko'rish mumkin:

Hamseleri muşliḥ-i ḥalq-ı cihān,
Beş kapulu cāmi'e beñzer hemān.
Hamseleri bī-bedel ü dil-güşā,
Penceredür bāğ-ı cināndan yaña.
Hamseleri iki cihān gülşeni,
Nice cihān gülşeni, cān gülşeni [10;627].

Salaflar nomini hurmat bilan tilga olgan Toshlijali ular "Xamsa"larini besh eshikli masjidga menzab (beshlik ekani nazarda tutilmoqda), bebaho va qalbni xursand etishda jannat bog'ining oynasiga qiyoslaydi. Ikki olam gulshani deb atab, ruju' san'ati asosida undan-da yuksakroq martabaga loyiq ko'radi: jahon emas, jon gulshani! Misralardagi "masjid" va "jannat bog'ining oynasi" tashbehlari orqali dostonlarning diniy-tasavvufiy, ma'rifiy-irfoniy mohiyatiga ishora qilinadi. Keyingi baytlarda ketma-ketlikda salaflar ta'rifiga o'rin beriladi:

Şeyḥ Nizāmī güher-i baḥr-i dīn
Ḥalka-i cem'iyete oldı nigīn
Ḥamsesi virdi yedi iklīme ḥāl
Pençe'-i ḥurşīd-i münevver-mişāl
Sözde kavī Hind ilünün Ḥüsrevī
Şeyḥ Nizāmī'nün odur peyrevī
Ḥazret-i Cāmī'dür anun şālişi
Genc-i ma'ānī'nün odur vārīşi
Mīr Nevāyī gül-i bī-ḥārdur
Ḥamsesi bir nāfe'-i Tātār'dur
Vaşf idemem zāt-ı ḥüredmendini
Ayn-ı acem görmedi mānendini [10;689]

Ilk salaf Nizomiydan boshlab aniq va asosli fikrlar keltiriladi. "Din dengizining gavhari" deya Nizomiy dostonchiligining asosiy mohiyati diniy-ma'rifiy g'oyalar asosida qurilganini ta'kidlar ekan, uning "Xamsa"si an'ananing boshlang'ichi sifatida yetti iqlimga nur ulashguvchi quyoshga mengzaladi. Dehlaviy xususida so'z yurita turib, Nizomiyga ergashgani va uning yo'lini tutgani uchun xalqda sharaf topdi desa, "Hamsa-ı mübārekde odur cām-ı ışk" misrasida iyhom san'ati orqali "jom" so'zini ikki ma'noda qo'llab, ham Jomiy taxallusiga ishora bersa, ham dostonlari ilohiy ishq zuhurlangan ko'ngildan bunyod bo'lganini urg'ulaydi. Gal Navoiyga kelganda munosabat yanada quyuqlashadi. Shoir dostonlari "guli bexor", "mushki totor"ga qiyoslanib, har bir so'zi muhabbat olovining sharsharasi, g'azal dengizining gavhariga o'xshatiladi. Dostondagi har bir kalima oltin kabi shakl olsa-da, qiymati jihatidan gavhar kabidir. Navoiy haqida so'zlay turib, aniq xulosaga keladi: bunday zotning ta'rifini ado qilib bo'lmaydi, chunki Ajam ahli unga monandini uchratmagan! Shoirning mazkur adabiy-estetik qarashlari qaysi salafga ko'proq ergashgani haqida aniq to'xtamga kelish uchun ham muhim asos bo'la oladi. Shoir e'tiroficha, barcha salaflar ham hurmatga loyiq, biroq Navoiyga monandi yo'q.

Ikki ming to'qqiz yuz o'n to'rt baytdan iborat doston muqaddimaviy boblarining "Maxzan ul-asror" bilan qiyosi quyidagicha:

1-jadval

tlr	“Maxzan ul-asror”	“Gulshan ul-anvor”
1	Basmalani o‘z ichiga olgan hamd bob	Birinchi basmala
2	Birinchi munojot	Ikkinchi basmala
3	Ikkinchi munojot	Uchinchi basmala
4	Na’t	Avvalgi hamd
5	Me’roj tarifi	Ikkinchi hamd
6	Birinchi na’t	Uchinchi hamd
7	Ikkinchi na’t	Birinchi munojot
8	Uchinchi na’t	Ikkinchi munojot
9	To’rtinchi na’t	Uchinchi munojot
10	Bahromshoh ibn Dovud madhi	Tanbeh
11	Hukmdorga atalgan ikkinchi bob	Hikoyat
12	Asarning maqomu martabasi bayoni	Birinchi na’t
13	So‘z fazilati bayoni	Ikkinchi na’t
14	Manzum so‘zning mansurdan afzalligi	Me’rojnoma na’t
15	Tun vasfi va ko‘ngilni bilish bayonida	Sulton Sulaymon madhi
16	Birinchi xilvat	Asarning yozilish sababi
17	Birinchi xilvat samarasi	Shayx Muhammad Dede Madhi
18	Ikkinchi xilvat	Hazrati Imom A‘zam hikoyati
19	Ikkinchi xilvat samarasi	Asar sohibining uzri

Ikkala dostonida ham asosiy qism yigirmanchi bobdan boshlanadi. Muqaddimaviy boblarga nazar tashlansa, ularning soni ikki xamsanavisda teng bo‘lishiga qaramasdan, mavzu-mundarijasiga ko‘ra turlicha. Nizomiyda basmala bob alohida keltirilmay, birinchi – hamd xarakterdagi bobning tarkibiy qismi sifatida keladi. Basmalani alohida bob sifatida keltirish Hazrat Navoiydan boshlanib, oldingi salafilar ilk dostonida bu bob mavjud emas. Ulkan xamsanavislik maydoniga kirib, gigantlar bilan belashmoqni istagan Hazrat Navoiy bu ilohiy jumlaning alohida bob doirasida sharhlashni ma’qul topgan. Yahyobey Toshlijali esa salaflardan o‘zgacha yo‘l tutib, ilk dostoniga uch basmalaga o‘rin ajratgan. Basmalalar mantiqan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ilohiy kalomning mukammal sharhiga bag‘ishlangan. Har uchala ijodkordagi mazkur boblar nasriy sarlavhasiz kelishi jihatidan mushtarakdir. Navoiyda Nizomiy va Toshlijali ilk dostonlaridan farqli ravishda dostonning keyingi barcha boblarida bob mohiyatini ixcham aks ettirgan qisqa nasriy sarlavhalar o‘rin olgan. Basmala bobda bunday sarlavhaning mavjud emasligi hazrat Navoiy beshlikning birinchi dostoni ilk jumlasini “Bismillohir-rahmonir-rahim”dan oldin biror so‘z deyishdan saqlanganini ko‘rsatadi.

Toshlijali dostonidagi ilk basmalada “Bismillahir-rohmanir-rohim” ilohiy kalimasidagi har bir harfga o‘xshatishlar keltiriladi. Yuksak ilmlar jamlanmasi o‘laroq olimlardan tashkil topgan karvonga (Her biri bir ālim-i rabbānīdūr [10;627]), himoya qila olishi xususiyati sababli zirhli askarga (Qıldı bu yazıda bu leşker mekān[10;627]), eng avvalda turgani uchun imomga (Besmeledür şanki sutūra imām[10;628]) o‘xshatiladi. Undagi har bir harf va ramzlar ilohiy mohiyat kasb etadi. Birinchi basmalada “Bismilloh”ning “mim”i abadiyat tog‘iga, “ha” saxovat eshigining tutqichiga, “ra” zikrga tushib, hayratga cho‘mgan solikka, “nun” kavsar bulog‘idan to‘lgan qadahga, uning nuqtalari Ka’bada yuz surtiladigan Hajarul-asvadga o‘xshatiladi.

Ikkinchi basmalada ham uning ilohiy mohiyatini ayon etuvchi o‘xshatishlar keladi. Qur’on bog‘idagi sarvga (Serv-i gūlistān-ı kelām-ı qadim [10;631]), yettinchi qavat osmondan oshgan Sidrat al-muntaha daraxtiga (Ma’nāda başı yedi gökden aşar, Sidreye beñzer yaşaduqça yaşar[10;631]), nuqtalar yulduzlarga, “ra”lar hilolga, “nun” nurga, “mim”lar mushki anbarga qiyoslanadi.

Uchinchi basmalada ham tashbehlar davom ettiriladi. Bu ilohiy kalom ikki yonida ikki daryo oqib turgan jannat bog‘iga (Ravza-i Ridvān gibi bu sebzezār İki yanında iki ırmağı var [10;634]), Tubo daraxtining soyasiga (Sāye-i Tübā gibidür āşikār [10;635]) mengzaladi. So‘nggi basmalaning yakuniga qarab tashbehlar yanada quyuqlashadi. Original va nodir o‘xshatishlarga murojaat qilinadi:

ADABIYOTSHUNOSLIK

Noktaları gevher-i baħr-ı kemāl

Encūm-i hādī gibi ferħunde-fāl [10;636]

Soʻzdagi nuqtalar komillik dengizining gavharidir, ular yulduzlar singari maʼnaviy nur va shodlik taratguvchidir, bu harflarning tasbeh donalari singari ishlatilishi, zikrning ruhiy va maʼnaviy ahamiyati taʼkidlanadi. Shoir harf va nuqtalar orqali solikning ruhiy yuksalishiga ishora qiladi.

Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy “Xamsa”lari ilk dostonlarida uchramaydigan hamda Hazrat Navoiydan alohida bob sifatida shakllana boshlangan, ilohiy kalomning mukammal poetik tavsifiga bagʻishlangan basmala bob Toshlijali dostonida uch bobni tashkil etadi. Uchala basmalada ham har bir harfga maxsus maʼno yuklash, bu ilohiy jumlaning nodir tashbehlarga munosib koʻrish jihatidan Hazrat Navoiyga izdoshlik mavjud. Biroq Toshlijali basmala boblarida, asosan, “Bismillohir-rahmonir-rahim”ning qudrati va harflarining qiyosi bilan cheklansa, Hazrat Navoiyda shoirning olam, odam, saltanat borasidagi adabiy-estetik qarashlari ham aks etadi. Toshlijali dostonidagi uchinchi basmalada soʻzlar orasidagi sukunlar tasbehga qiyos etilsa, oʻz basmala bobi avvalida bu ilohiy kalomni ipga tizilgan durga mengzagan Navoiy boqiylik xazinasiga erishmoqchi boʻlgan inson shu durni oʻziga tasbih qilib olmogʻi lozim deya uning haqiqiy solikning doimiy yoʻldoshi boʻlishi lozimligiga ishora beradi. Toshlijali basmalalaridagi harf va belgilar toʻlaligicha ijobiy xarakter kasb etib, nodir tashbehlarga loyiq koʻrilsa, Navoiy dostonida olamning ikki asosdan – ezgulik va yovuzlikdan iboratligi orqali harflar ham turli pozitsiyalarni ifodalaydi.

Toshlijali dostonidagi asosiy maqsad – tariqat maqomlarini tushuntirish, solik va sufiylar holatlari va darajalarini koʻrsatish, maʼrifiy-irfoniy kashf va karomatlarni anglatish deya izohlaydi. Xususan, oʻzining darveshlik yoʻliga qay tariqa kirganini yozar ekan, piri murshidi Mehmed Dede ismini ilk marta shu qismda ochiqlaydi.

“Gulshan ul-anvor” dostoni strukturasi boshqa xamsanavislar ilk dostonidan farq qiladi. Doston toʻrt “fasl” (boʻlim) va yetti “martaba” (daraja)dan iborat boʻlib, har bir fasl va martaba oxirida shu mavzuga oid hikoyatlar keltirilgan.

- birinchi faslda hukmdorlar xalqqa qanday muomala qilishlari kerakligi xususida soʻz boradi. Bu qismda mavzuga aloqador sakkizta hikoya keltiriladi;

- ikkinchi fasl gʻofil(beparvo) kimsalarni ogohlantirish va yetuklarga nasihat qilishga qaratilgan boʻlib, toʻqqiz qism orqali “hikoya”, “tamsil”, “maʼviza” (nasihat), “tanbeh” kabi sarlavhalar ostida misollar beriladi;

- uchinchi faslda oʻtkinchi dunyoga muhabbat oxirat uchun azob va mashaqqat manbayi ekani beshta hikoya orqali tavsiflanadi;

- asarning soʻnggi faslida esa qanoat xususida soʻz boradi. Muallif bu mavzuni ham “hikoya”, “tamsil”, “tanbeh” kabi sarlavhalar ostidagi hikoyalar bilan bezaydi. Bu struktura Saʼdiy Sheroziyning “Guliston” va “Boʻstan” asarlaridagi boʻlimlarni eslatadi.

Toʻrt fasldan keyin asarda tush karomati xususida soʻz borib, beshta tush hikoya qilinadi va har birining taʼbiri beriladi.

Asarning yetti martabadan (darajadan) iborat boʻlimida valiylikning toʻrt qismdan tashkil topishi xususida soʻz boradi. Asarda valiylik tabiatining toʻrt unsuri - havo, olov, suv va tuproqdan iborat boʻlgan “anasir-i arbaʼa” (toʻrtta unsur)ga oʻxshatiladi. Soʻngra valiylikning yetti darajasi eʼtirof etiladi. Toʻrtinchi va beshinchi darajalardan keyin uchta, qolagan darajalardan keyin ikkita hikoya oʻrin oladi. Mazkur hikoyalar har bir darajada qalamga olingan fazilat va sifatlarni teranroq anglash imkonini beradi.

Asar xotimasida bu masnaviyni yozib tugatgan paytda shoir yoshi va salomatligida zaif ekanini taʼkidlab, bu asar bilan oʻz “Xamsa”siga yakun yasaganini bildiradi hamda oʻz dostonining tarjima yoki koʻchirma asar emasligini qayd etadi.

XULOSA

Toshlijali Yahyobey “Gulshan ul-anvor”i shoir “Xamsa”sining soʻnggi dostoni sanalsa-da, oʻzi eʼtirof etganidek, Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy “Xamsa”larining birinchi dostonlariga monand tasavvufiy-falsafiy, maʼrifiy-irfoniy, axloqiy-didaktik asar sifatida eʼtirof etiladi. XVI asr dostonchiligida muhim oʻrin egallagan bu asar oʻz davridan boshlab chuqur oʻrganilgan va hana xamsanavislik kontekstida tadqiq obyekti sanalgan nodir dostonlar sirasiga kiradi. Asarda qudratli Sulton Sulaymon zamonasidagi siyosiy-madaniy hayot tasviridan tashqari davrning dolzarb masalalariga ham eʼtibor qaratiladi. Puxta struktura, boblararo mantiqiy izchillik, masalalar talqinida

muallifning tengsiz badiiy mahorati asar sohibining asrlar osha xamsanavislar qatorida nomi hurmat ila tilga olinishini va mazkur dostonning kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinishini ta'minlamoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amil Çelebioğlu, Kanûni Devri Türk Edebiyatı, İstanbul, 1994. – S. 78.
2. Bayram Ali Kaya. Şehrengîz. İslam ansiklopedisi. 38.cilt. İstanbul, 2011.
3. Bayram Ali Kaya. Taşlıcalı Yahya bey. İslam ansiklopedisi, 40.cilt. İstanbul, 2011.
4. Бертельс Е.Э.Избранные труды. Низами. Монография. Издательство Восточной литературы. Москва, 1962.
5. Kocaman S. Taşlıcalı Yahya bey'in Kanuni Sultan Süleyman'a sunduğu kasideler üzerine bir yorum denemesi. Yüksek lisans tezi. İstanbul, 2005.
6. Köplülüzade F.M. Eski şairlerimiz Divan edebiyatı antolojisi. İstanbul, 1931.
7. Levend O.S.Ali Şir Neval. Hayatı, sanatı ve kişiliği. I cilt. Ankara: Türk tarih kurumu basımevi, 1965.
8. Nizami-yi Gencevi'nin "Mahzen ü'l-esrar" mesnevisine Osmanlı sahasında yazılmış türkçe nazireler. (Hazırlayan H. Acar). Diyarbakır, 2002.
9. Sağlam A. Taşlıcalı Yahya bey ve Hamse'si. Doktora tezi. Diyarbakır, 2016.
10. Taşlıcalı Y. Gülşen-i envar'ın karşılaştırmalı metni (Karşılaştırmalı metin hazırlanırken mesnevînin şu nüshaları kullanılmıştır: 1- Millet Kütüphanesi (Ali Emîrî Efendi Manzum Eserler) 993; 2- Milli Kütüphane 60 Hk 1/1 (1b-81a); 3- Râşid Efendi Kütüphanesi 1124).
11. Эркинов А. Алишер Навоий "Хамса"си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Т.:Tamaddun, 2018.
12. Эркинов С."Хамса" анъаналари // Алишер Навоий "Хамса"си. Тадқиқотлар. Т.: "Фан", 1986.
13. Çavuşoğlu M. Yahya Bey, İslam Ansiklopedisi, Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, Millî Eğitim Basımevi, 1986, 13.
14. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. Тошкент: "Ўзбекистон". 1970.
15. Şentürk, A. A. ve Kartal A. Eski Türk Edebiyatı Tarihi. İstanbul: Dergâh Yayınları. 2005.
16. Шодиев Э. "Хамса" ва форс-тожик адабиёти // Алишер Навоий "Хамса"си. Тадқиқотлар. Тошкент: "Фан", 1986.